



ENVIRONMENTAL CRIMES AND THEIR CRIMINAL LIABILITY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: PRACTICAL PROBLEMS AND WAYS TO IMPROVE

Turganbayev Baxadir Saparbayevich

Master's student at Karakalpak State University

bakhadir02@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15407907>

ARTICLE INFO

Received: 08th May 2025

Accepted: 13rd May 2025

Online: 14th May 2025

KEYWORDS

Environmental crime, criminal liability, ecological problems, analysis, regulatory legal acts, environmental protection, natural environment, environmental safety.

ABSTRACT

This article analyzes environmental crimes in the regulatory legal system of the Republic of Uzbekistan and the problems of ensuring the fight against them. In the course of the research, issues of legal certainty of environmental crimes, mechanisms of punishment and their application in practice were studied in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan, the Law "On Environmental Protection" and other relevant regulatory documents. The article focuses on measures to prevent environmental crimes and reduce their negative social and environmental consequences.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK JINOYATLAR VA ULARNING JINOIY JAVOBGARLIGI: AMALIY MASALALAR VA YUKSALTIRISH YO'LLARI

Turganbayev Baxadir Saparbayevich

Qoraqalpoq Davlat Universiteti magistranti

bakhadir02@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15407907>

ARTICLE INFO

Received: 08th May 2025

Accepted: 13rd May 2025

Online: 14th May 2025

KEYWORDS

Ekologik jinoyat, jinoyiy javobgarlik, ekologik muammolar, tahlil, normativ-huquqiy hujjatlar, tabiatni muhofaza qilish, tabiiy muhit, ekologik xavfsizlik.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy tizimida ekologik jinoyatlar va ularga qarshi kurashishni ta'minlash muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi", "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi" qonun va boshqa tegishli normativ hujjatlarda ekologik jinoyatlarning huquqiy aniqligi, jazolash mexanizmlari va ularni amaliyotda qollash masalalari o'rganilgan. Maqolada ekologik jinoyatlarning oldini olish va ularning ijtimoiy va ekologik salbiy oqibatlarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarga e'tibor qaratildi.

KIRISH

Bugungi kunda barcha dunyo davlatlari uchun ekologik muammolar va ularning oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha eng maqbul yechimlarni topish dolzarb masala



hisoblanadi. Shu qatorda, O'zbekiston Respublikasi ham atrof-muhitning ifloslanishi, o'simlik va hayvonot dunyosining kamayishi, tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish va iqlim o'zgarishi kabi muammolarni bartaraf etish bo'yicha milliy huquqiy tizimni rivojlantirishga va natijali ekologik siyosatni amalga oshirishga harakat qilmoqda. Bu borada, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2025 yilni Atrof-muhitni muhofaza qilish va "Yashil" iqtisodiyot yili deb e'lon qilishni taklif qilib, ekologik jihatlarni hisobga olgan holda mamlakatimizdagi barcha sohalarni uyg'un rivojlantirish zarurligini ta'kidladi[1].

Ushbu tashabbus doirasida inson salomatligi, iqtisodiy barqarorlik va kelajak avlodlar uchun yaxshi ekologik muhitni yaratish maqsadida barcha sohalar qatorida davlatimizda ekologik huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, ularning oldini olish va salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha normativ-huquqiy bazani mustahkamlashga ham katta e'tibor qaratilgan. O'z navbatida so'nggi yillar davomida O'zbekistonda ekologik huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari kuchaygani kuzatilmoqda.

2023 yil iyun oyida qonun hujjatlariga ekologiya va atrof-muhitga zarar yetkazish bilan bog'liq jinoyatlarni og'ir jinoyatlar toifasiga kiritish bo'yicha o'zgartirishlar kiritildi. Bunday qoidabuzarliklar uchun jarimalar, shu jumladan hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik va chiqindilarni noaniq joylarga tashlash uchun jarimalar sezilarli darajada oshirildi[2].

2024 yil dekabr oyida Jinoyat kodeksiga, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga, shuningdek, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi va boshqa bir nechta qonunlarga hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi[3].

Kelajagimiz ko'p jihatdan, atrof-muhit bilan bog'liq va amalga oshirilayotgan ushbu choralar davlatning ekologik jinoyatlar uchun javobgarlikni kuchaytirishga va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlashga bo'lgan intilishini aks ettiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi, "Tabiatni muhofazasi to'g'risidagi" qonun va boshqa tegishli normativ hujjatlar ushbu maqolaning asosiy huquqiy manbasi hisoblanadi. Ularni tahlil qilish natijasida ekologik jinoyatlar konsepsiyasining aniqligi, ekologiya ifloslanish, tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish va chiqindilarni qonunga xilof tarzda tashlash bo'yicha belgilangan jazo choralari hamda yetkazilgan zararni qoplash mexanizmlari aniqlandi. Maqolada huquqiy normalarni tahlil qilish va taqqoslash usulidan foydalanilgan. O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi va xalqaro huquqiy normativ me'yorlari o'rganib chiqilgan bo'lib, bu o'z navbatida ekologik jinoyatlarni huquqiy tartibga solishdagi farqni aniqlash imkonini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ekologik jinoyatlar - bu atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanadish, ifloslanish, tabiatga ziyon yetkazuvchi harakatlar va shunga oxshash jinoyatlarni o'z ichiga oladi. Bu jinoyatlar nafaqat iqtisodiy zarar yetkazib qo'ymasdan, balki inson salomatligi va hayot sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hozirgi kunda ekologik jinoyatlar natijasida yuzaga keladigan zararining oldini olish, ularni aniqlash va jazolash orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash davlatimiz siyosatining ajralmas qismiga aylangan.



Shu munosabat bilan Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning quyidagi fikrlari e'tiborga molik: "Dunyo miqyosida ekologik muammolar XXI asrda birinchi o'rinni egalladi. Bolalarimiz bizdan keyin ham tibbiy markazda davolanishlari kerak. Buning uchun biz tabiatga etibor berishimiz, faqat bugunni emas, balki yaqin va uzoq kelajakni o'ylab ish tutishimiz kerak[4].

Jinoiy javobgarlik - bu jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan qonunda belgilangan jazoni qo'llash mexanizmi bo'lib, uning asosiy maqsadi jinoyatlarning oldini olish, jinoyatchilik darajasini kamaytirish hamda ijtimoiy adolatni ta'minlashdan iborat. Jinoiy javobgarlikning normativ-huquqiy asoslarining mustahkamligi va ularning amaliyotda to'liq qo'llanilishi jinoyatlarning oldini olishda, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashishda zaruriy omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi ekologik jinoyatlar uchun maxsus tartib va jazolovchi mexanizmlarni belgilab beradi. Kodeksning 5-bo'limi "Ekologiya sohasidagi jinoyatlar" deb nomlanib, ekologik jinoyatlar uchun maxsus moddalar bilan ta'minlangan. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Atrof-muhitni ifloslantirish, chiqindilarni noqonuniy ravishda tashlash, zararli kimyoviy elementlardan foydalanish tartibini buzish kabi jinoyatlar;
- Tabiiy resurslardan qonunga xilof foydalanish va ularni ruxsatsiz qazib olish;
- Ekologik vaziyatni yomonlashtirish natijasida inson salomatligiga zarar yetkazish;
- Ekologik normalar va standartlarga amal qilmagan holda sanoat faoliyatini amalga oshirish natijasida yetkazilgan zararni qoplash majburiyati.

Bu ekologiya sohasidagi jinoyatlar blanket dispozitsiyalardir. Ya'ni, jinoyat qonunchiligi atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlar tushunchasi va belgilarini o'z dispozitsiyasida ochib bermasdan bu sohada qabul qilingan qonunlar yoki boshqa normativ hujjatlarga havola beradi[5].

Ushbu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlikni qo'llashda quyidagi qonunlar asosiy manba vazifasini bajaradi. O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentyabrda qabul qilingan "Qimmatbaho va yo'qolib borayotgan o'simliklar hamda hayvon turlarini muhofaza qilishni kuchaytirish va ulardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi 937-XII-sonli qarori; 2016-yil 19-sentyabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi qonuni; 2016-yil 21-sentyabrdagi "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi (Yangi tahrirda); 2004-yil 3-dekabrda "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonunlari; O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1996-yil 20-dekabrda "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida"gi 36-sonli qarori kabi me'yoriy hujjatlar asosida tartibga solinadi.

"Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun ekologik muhofazani ta'minlashda asosiy me'yoriy hujjat sifatida xizmat qiladi. Bu qonun:

- Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va tabiiy resurslarni asrashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi;
- Davlat tashkilotlari va mahalliy boshqaruv tizimlariga ekologik nazoratni amalga oshirish vakolatlarini beradi;



- Ekologik jinoyatlarni sodir etgan subyektlarga nisbatan davlat tomonidan qo'llaniladigan jazo choralarini belgilaydi.

Qonun asosida ekologik jinoyatlarning oldini olish va yetkazilgan zararlarni qoplash mexanizmlari yaratilgan bo'lib, bu orqali jinoyatchilik darajasini kamaytirish hamda atrof-tabiiy muhitning barqarorligini ta'minlashga erishiladi.

Ekologik jinoyatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasida boshqa normativ-huquqiy hujjatlar ham mavjud. Masalan, "Yer kodeksi" orqali yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish qoidalari belgilab qo'yilgan. Bundan tashqari, sanoat va qishloq xo'jaligi sohasida ekologik standartlarga rioya etilishi bo'yicha qo'shimcha normativ hujjatlar ham ishlab chiqilgan. Ushbu hujjatlar Jinoyat kodeksi va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun bilan birgalikda ekologik jinoyatlar uchun umumiy huquqiy tizimni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy tizimida ekologik jinoyatlarga oid normalarning mavjudligi zarur ahamiyatga ega. Biroq, amaliyotda ayrim bo'shliqlar kuzatilmoqda:

- Qonunchilikda ekologik jinoyatlar konsepsiyasi ayrim hollarda to'liq ko'rsatilmagan. Natijada, ayrim jinoyatlarni aniqlashda huquqiy tushunmovchiliklar yuzaga kelmoqda.

- Ekologik jinoyatlarga oid jazolarning yetarli darajada qat'iy emasligi, ayrim hollarda jazolarning me'yoriy past baholanishi kuzatiladi. Bu esa jinoyatchilikning oldini olishda salbiy omil hisoblanadi.

- Normativ hujjatlarning amaliyotda qo'llanilishini yetarli darajada nazorat qilish mexanizmlari va monitoring tizimlari mavjud emasligi ham muammolarga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi hududida so'nggi besh yil ichida ekologik jinoyatlar, xususan, sanoat korxonalarini, transport va qishloq xo'jaligi sohasida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan jinoiy holatlar o'rtacha yiliga 150-200 atrofida bo'lib, ularning 40 foizdan ko'pi suv va havoning ifloslanishi, tuproq degradatsiyasi hamda chiqindilarni tashlash bilan bog'liqligi aniqlangan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ekologik jinoyatlar bo'yicha sud jarayonlarida belgilangan jazolarning 25-30 foizi ular yetkazgan zararga to'g'ri kelmagan; ya'ni, jarima miqdori yoki boshqa jazo chorasi yetarli bo'lmagan.

Shu bilan birga ekologiyaga qarshi jinoyatlar bo'yicha javobgarlikni belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatlar va yangi qonun loyihalarini "ekologik ekspertiza"dan o'tkazish masalasida ham juda muhim sanaladi. Chunki normativ-huquqiy hujjatlarning ekologik ekspertizasi - qonun loyihalarining atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi standartlarga muvofiqligini anglatadi. Boshqacha aytganda, ekologik ekspertiza maxsus bir qonunchilik hujjati qabul qilinishidan oldin o'tkazilishi shart bo'lgan atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishning zarur chorasi sifatida qaralishi kerak. Shu qatorda ekologik ekspertiza o'tkazish sohasida xorijiy tajribalarga tayangan holda zamonaviy va samarali usullarga e'tibor qaratish lozim. Xususan, rivojlangan mamlakatlarda atrof-muhitga ta'sirni baholash tizimi (Environmental Impact Assessment) bilan birga loyihalarni strategik ekologik baholash (Strategic Environmental Assessment) tizimi, ya'ni qonunchilik hujjatlari va davlat loyihalarini ekologik ekspertizadan o'tkazish jarayoni amaliyotda qo'llanib kelinmoqda[6].

Ekologik jinoyatlarni aniqlash va tergov qilishda sud va tergov organlari tuzilmasini rivojlantirishda muhim sanaladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sud-huquq tizimini isloh qilish masalasiga alohida e'tibor qaratib, bu sohada qator



muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Xususan, 2016-yil 21-oktyabrda qabul qilingan "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham sud hokimiyatining qat'iy mustaqilligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish hamda odil sudlovga erishish darajasini oshirishga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, 2017-yil 22-fevralda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida mamlakat sud tizimini izchil demokratlashtirish va sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi.

Bu yangiliklar sud-huquq tizimini isloh qilish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha zarur qadamlar bo'lib, mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga ekologiya sohasida ham qonun ustuvorligini ta'minlash, ekologik jinoyatlar uchun odil sudlovga erishishda muhim masala hisoblanadi. Shu bois ekologik jinoyatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi sud tizimida Ekologik sudlarning tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ko'plab davlatlarda maxsus ekologik sudlar tashkil etilgan bo'lib, ular ekologik qonunbuzarliklarni samarali hal etishga ko'maklashadi. Misol tariqasida, Xitoyda 130 dan ortiq ekologik sudlar faoliyat yuritib, atrof-muhitni ifloslantirish bilan bog'liq holatlar bo'yicha tezkor qarorlar qabul qiladi[7]. Hindistonda yashil tribunal (National Green Tribunal) ekologik nizolarni ko'rib chiqish bo'yicha asosiy organ hisoblanadi[8]. Ushbu sud ekologik jinoyatlar bo'yicha tezkor choralar ko'rish va javobgarlikni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ekologik sudlarning tashkil etilishi quyidagi natijalarga olib kelishi mumkin:

- Ekologik jinoyatlar bo'yicha ishlarni tezkor va samarali ko'rib chiqish.
- Tabiiy - atrof-muhitga yetkazilgan zararlarning o'rnini qoplash bo'yicha majburiy qarorlarni qabul qilish.
- Ekologik qonunlarni buzgan subyektlarga nisbatan qattiq jazo choralari qo'llash.

So'nggi yillarda zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli monitoring tizimlari va sun'iy intellekt yordamida qonunchilikni mustahkamlashga e'tibor qaratilmoqda. Ushbu sohani yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli Farmoni bilan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi qabul qilingan bo'lib, unda mamlakatimizda barcha sohalar qatori qonunchilik sohasida raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash vazifalari nazarda tutilgan[9]. Shu bilan birga, ushbu strategiyaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish yo'nalishlari belgilab berildi.[10]

Sun'iy intellekt bugungi kunda jamiyat hayotiga to'liq kirib bormoqda. Bu shuni anglatadiki, boshqa sohalar qatori ekologiya sohasida ham chetda qolmasligi kerak. Shu bois ekologik monitoring tizimlarini raqamlashtirish va avtomatlashtirish zarur. Bu o'z navbatida ekotizimning holatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi. Bunda zamonaviy sensor texnologiyalar, sun'iy intellekt algoritmlari va IT qurilmalari yordamida ma'lumotlar yig'ish,



tahlil qilish va avtomatik ogohlantirish tizimlari joriy etilishi lozim. Masalan, "Eco-monitor.uz" kabi milliy platforma orqali tabiiy hodisalarni kuzatish, ekologik jinoyatlar faktlarini aniqlash va bu bo'yicha tezkor choralar qo'llanilishi mumkin. Bunday tizimlarning yaratilishi tergov organlariga qo'shimcha dalillarni taqdim etib, sud jarayonlarida adolat ta'minlanishiga ko'maklashadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda normativ-huquqiy tizimda ekologik jinoyatlar va ularning jinoiy javobgarligini takomillashtirish, normativ bo'shliqlarni bartaraf etish va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi orqali ekologik jinoyatlar bilan samarali kurashishga erishish mumkin. Shuningdek, bu o'z navbatida mamlakatimizda ekologik muhitni saqlashga ham xizmat qiladi.

References:

1. Parlament va hukumat faoliyatida yangicha ishlash, xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish davri. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz/oz/lists/view/7716>
2. "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.05.2023 yildagi PQ-171-son: <https://lex.uz/docs/-6479134>
3. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi majlisining kun tartibi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori, 17.12.2024 yildagi 186-V-son: <https://lex.uz/docs/-7307040>
4. Avlodlarimiz bizdan keyin ham munosib tabiiy muhitda yashashi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti: <https://president.uz/oz/lists/view/4955>
5. Berdiboyev S "HAYVONLARGA SHAVQATSIZ MUNOSABATDA BO'LISH JINOYATLARI TASNIFI VA JINOIY JAVOBGARLIGI": <https://interonconf.org/index.php/pol/article/view/6548/5656>
6. Раҳматуллоев И.Т "ЭКОЛОГИЯ СОҲАСИДАГИ ҚОНУН ХУЖЖАТЛАРИНИ БУЗГАНЛИК УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АЙРИМ МУАММОЛАРИ" ISSN: 2181-3477: <https://sciencebox.uz/index.php/siyosatshunoslik/article/view/5708/5185>
7. Understanding the emergence of China's environmental courts. Yale Environment Review: <https://environment-review.yale.edu/understanding-emergence-chinas-environmental-courts>
8. Wikipedia: National Green Tribunal: https://en.wikipedia.org/wiki/National_Green_Tribunal
9. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son: <https://lex.uz/docs/-5030957>
10. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.02.2021 yildagi PQ-4996-son: <https://lex.uz/docs/-5297046>